

**“SIYOSATNOMA” – SIYOSIY, TARIXIY, BADIY QO’LLANMA***Termiz davlat universiteti**1-kurs talabasi**Abdurahmonova Sarvinoz**hamda 2-kurs talabasi**Abdurahmonova Farangiz*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o’zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, tarix va siyosat bobida eng ishonchli va samarali manba bo‘lgan, bo‘layotgan, bo‘ladigan asar - "Siyosatnoma" haqida so‘z boradi. Shuningdek, asardan o‘rin olgan muxtasar hikoyatlar va ularning tahlillari, xulosalari, g‘oyalari ham badiiy jihatdan sintez va analiz qilingan.*

Kalit so‘zlar: *podshoh, Yusuf (a.s), adolat, Nizomulmulk, saljuqiylar, siyosat.*

Annotation: *This article discusses Siyasatnama, a work that holds a significant place in Uzbek literature and serves as one of the most reliable and effective sources on history and politics. It also analyzes and interprets the brief stories included in the work, offering conclusions and ideas that are synthesized and examined from an artistic perspective.*

Keywords: *king, Yusuf (peace be upon him), justice, Nizam al-Mulk, Seljuks, politics*

Аннотация: В данной статье рассматривается произведение «Сиясатнаме», которое занимает особое место в узбекской литературе и является одним из самых достоверных и эффективных источников по истории и политике. Также проведён художественный синтез и анализ кратких рассказов, включённых в произведение, их идей, выводов и смыслов.

Ключевые слова: *шах, Юсуф (мир ему), справедливость, Низамульмульк, сельджуки, политика.*

Adabiyot- so'z san'atini ulkan bir bahri ummon desak, har bir kitob, har bir go‘zal asar uning bir tarmog'i - jilg'asi desak yanglishmagan bo'lamic. Shunday



nafis jilg‘alardan biri Nizomulmulkning 1091-yilda yozgan, madaniyat o'chog‘i hisoblan mish Sharq tarixi hamda sivilizatsiyasiga o‘zining munosib hissasini qo'shgan "Siyosatnoma" yoxud "Siyar ul-mulk" asaridir. 39 bobdan iborat ushbu asar nafaqat tarixiy, siyosiy manba, balki badiiy yuksaklik bilan yo‘g‘rilgan noyob gavhardir. Ushbu asar saljuqiyilar sulolasi hukmronligini mufassal tasvirlab bergani uchun ham badiiy , ham tarixiy qo'llanma vazifasini o'taydi. An'analarga rioya etgan holda " Mehribon va rahmdil Alloh nomi ila" ya'ni (bismillahir rohmanir rohim)dan so'ng ilk fasl " Zamona odamlarining ahvollari va sultoni odil, shahanshohi a'zam haladallohu mulkahuning madhi haqida" so'z boradi. Ushbu faslda keltirilishicha Alloh taolo har asr va davrda xalq ichidan bir kishini podshoh qilib ko'taradi, unga o'z qudratini ko‘rsatib baxt va iqbol beradi, ular tufayli esa podshoh qo‘l ostidagilarni boshqaradi, ya'nikim davlat va hokimiyat tepasida turgan inson Allohnинг izmi ila shu darajaga erishgan, shu tufayli ham uning hurmatini joyiga qo'yish, uning xalq manfaati uchun qilayotgan fidoyiliklarini qadrlamoq lozim. Zero podshohi azim - Xudoning yerdagi ko‘lankasi. Asarda shunday hikoyat keltiriladiki, Yusuf (alayhissalom) vafot etgach ularni ajdodlari yoniga dafn etmoqchi bo‘lganlarida Jabroil (alayhissalom) kelib:

" ...bu joy uning joyi emas, bir mamlakatning javobini qiyomatda berishi kerak", - deya ularni to'xtatadi. Ushbu qissadan hissa hatto payg'ambar bo'lsa ham, u podshohlik yukini bo'yniga ortgan bo'lsa, Alloh taolo unga bergen ishonchini oqlashi, majburiyatni ado etishi zarur. Alloh davlat boshliqlarini boshqa bandalariga qaraganda o'zgacharoq so‘roq qiladi. Aytadilarki, qiyomat kuni podshohlar qo‘llarida qayd bilan keltiriladi, agar davlatni adolat bilan boshqargan bo'lsa, kishanlari o'z - o'zidan parchalanib ketgay, biroq insofsizlik va zulm uning foniylarini bo‘lgan esa shu qaydlari bilan jahannamga ravona bo‘ladi . Shunday ekan har bir davlat tepasida turgan shoh avvalo fuqarolari ko‘nglini ovlashi kerak hamda boy ni kambag'aldan, kattani kichikdan ayirmasligi lozim. Zero :

Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut, yamon-u yaxshini

Kim mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

(Ogahiy)



Fikrimizning dalili sifatida ushbu asarning uchinchi faslidan o'rin olgan muxtasar hikoyatni keltirishimiz mumkin:

Oldinlari Ajam yurtining sultonlari bir do'kon yasab uni otda sahroma - sahro tog'ma-tog' olib yurib, mazlumlarning dodini eshitib, zolimlarning jazosini berib yurar ekanlar, negaki agar ular bir joyda muqim turib qolsa, devor, deraza, parda paydo bo'lib, bo'ri kabi ochko'z va johil amaldorlar ulardan foydalanib, podshohga ozurda xalq ahvolini bilishda to'sqinlik qiladilar hamda mazlumlarni podshoh yoniga qo'ymaydilar. Qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak, podshohning gardaniga tushgan yuk mazmunlardan xabardor bo'lish, yovuzlar adabini berish va hatto nifoq va kin urug'ini sochuvchilarni fosh etishni ham qamrab oladi. Chunonchi, asarda davlat siyosati va boshqaruv tizimining eng kichik murvatidan tokatta mexanizmiga qadar qanday ishlashi va samarali usullari ochib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, asar o'z nomi bilan "Siyosatnama" ya'ni siyosatni qanday olib borish kalitlari haqida. Mana 9 asr oshibdiki, hali -hanuz ushbu asar o'z qiymatini yo'qotmagan, yo'qotmagay, negaki asarda nafaqat o'z davrining dolzarb muammolari, balki umrboqiy inson mavjud ekan doim bor bo'ladigan qirralarni, kamchiliklarni ochib bergen. Kelajakda ham tarix, siyosat va adabiyot sohasidagi nodir namunalardan biri sifatida avlodlar uchun ham dastak bo'lajak. Zero asr oshgan asarlar kitobxonlar qalbida mangu barhayot!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muxamedov Sh. "Siyosatnama" asarda Nizomul-Mulk davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlari. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamонавиу тенденсиyalari va rivojlanish omillari. Toshkent, 2025.
2. Vohidov R. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Adabiyot jamg'armasi. Toshkent, 2006.
3. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. SamDU nashriyoti. Samarqand, [nashr yili ko'rsatilmagan].
4. Nizomulmulk. Siyosatnama (Siyar al-mulūk). Tarj. H. Darke. Routledge & Kegan Paul (UNESCO Persian Series). London, 1960.